

Mahmud Hakim Yayfoniyning “Xullas ut-Tavorix “asari Farg`ona vodiysi tarixiy manbalaridan biri sifatida.

*R. Xolmatov t.f,n G. Erkaboyeva II kurs magistranti
Qo`qon Davlat Pedagogika Instituti.*

Mahmud Hakim Shomurod o`gli Yayfoniy(1850-1937) tabobat adabiy va ilmiy asarlar yozish bilan birga o`z davrining yirik tarixchisi ham edi. Uning “Xullas ut-Tavorix “(tarixlar xulosasi)asari ham ana shunday ilmiy manbalardan biridir. Bizga bu asarning hozirgacha ikkita qo`lyozma nusxasi ma`lum. “Xullas ut-Tavorix“ning Dushanbe nusxasi haqida qozoq tarixchisi T. Beysembiyev o`zining rus tilida chop etilgan “Tarixi Shohruxi kak istoricheskiy istochnik “ nomli kitobida ma`lumot bergan.

Mahmud Hakimning “Xullas ut-Tavorix “asari haqida tadqiqotchilar 1914yilda G.Shumakov litografiyasida chop etilgan nusxasiga asoslanib fikr yuritib kelmoqdalar. Ushbu asarning 1925 yilda muallif qo`li bilan ko`chirilgan so`nggi to`liq nusxasi ham mavjud. U Qo`qon shahar adabiyot muzeyi fondida 70-inventar raqami ostida saqlanmoqda. Qo`lyozma 181 bet (92 varaq)Asar muqaddima va 35 bobdan iborat. Boblarning barchasiga sarlavha qo`yilgan 1-21 boblar bevosita Qo`qon xonlarining tarixiga bag`ishlangan. Qolgan boblarda esa Kayoniy, sosoniy podshohlari arab xalifalari 12 islom saljuqiylar tarixi, shuningdek hindlarning va Evropaliklarning kalendari hijriy yil hisobida uning kelib chiqishi sabablari bayon qilingan. Olib borilgan kuzatishlardan ma`lum bo`lishicha “kengash “ jurnalining 1917 yil 3,4 sonlarida asarning bosh qismi “Tarixi saloti farg`ona “(“Farg`ona sultonlarining tarixi “)bosilib chiqqan. Tarix fanlar doktori X.Bobobekov “Q`oqon tarixi “ nomli asarida Qo`qondagi jo`me masjidining qurilishi haqida so`z yuritganda “Xullas ut-Tavorix “asaridan parcha keltirib o`tadi.

“Xullas ut-Tavorix “ning toshbosma nusxasi 79 betdan iborat bo`lib, kitobchaning oxirida Mahmud Hakim Qo`qon xonlari tarixini asarning 2-nashrida batafsil yozishini ma`lum qilgan. 70-raqam ostidagi qo`lyozma asarning to`ldirilgan mukammal variant deb hisoblash mumkin. O`rni kelganda shuni ham aytish kerakki “Xullas ut-Tavorix“ba`zi tadqiqotchilar ta`kidlaganidek “Tarixi Shohruxiy “ning tajribasi emas ekanligi ma`lum bo`ladi T. Beysembiyevning ma`lumot berishicha,“Xullas ut-Tavorix”ning Tojikiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik Instituti 1220 raqami ostida saqlanayotgan qo`lyozma nusxasi 38 varaqdan iboratdir. “Xullas ut-Tavorix" deb qo`yilishi ham uning hajmi uncha katta bo`lmaganiga ishora. Mahmud Hakim o`z asarini Firdavsiyning

“Shohnoma”, Sharofiddin Aliyazdiyning “Zafarnoma” Muhammad Hakimxon To’raning “Muntahab ut-tavorix”, Niyozmuhammad binni Ashurmuhammad Ho’qandiyning “Tarixiy Shohruxiy” asaridan hamda o’zi guvoh bo’lgan voqea hodisalardan foydalanib yozgan. Asarning boshlanishida muallif o’zidan oldin o’tgan muarrixlar singari Farg’ona muzofoti hukmdorning nasab jihatidan Bobur Mirzoga borib yetishini ta’kidlaydi. Qo’qon xoni Xudoyorxonning shajarasini bayon qiladi. So’ngra Qo’qon xonlariga ta’rif beradi. Asarning Xudoyorxon hukmronlik davrining oxirgi yillarida ro’y bergan voqea hodisalar “Po’latxon qo’zg’oloni” Turkistonning chor Rossiyasi qo’shinlari tomonidan bosib olinishi aks ettirilgan sahifalari ayniqsa qiziqarli va faktlarga boy. Muallif mazkur davrda yuz bergan voqealarning aksariyatida o’zi ishtirok etgan. U keltirgan xolisona dalillar alohida ilmiy ahamiyatga egadir.

